

Sodiqjonova Yoqutxon

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi

Annotatsiya: *Quyidagi maqola Turk adibi Ahmad Lutfi Qozonchining "O'gay ona,, asari to'g'risida bo'lib, o'n to'qqiz yoshli Fotimaning yetim farzandlariga bo'lgan mehrli munosabati va uning boshqa o'gay onalardan farqli tomonlari bayon qilingan.*

Аннотаци: *Следующая статья посвящена произведению турецкого писателя Ахмада Лутфи Казанчи «Мачеха» и описывает любовное отношение девятнадцатилетней Фатимы к своим сиротам и ее отличия от других мачех.*

Annotation: *The following article is about the Turkish writer Ahmad Lutfi Kazanchi's work "Stepmother", and describes the loving attitude of nineteen-year-old Fatima to her orphans and her differences from other stepmothers.*

Kalit so'zlar: *O'gay ona, farzand, ayol, maktab, shukronalik.*

Ключевые слова: *Мачеха, ребенок, женщина, школа, благодарность.*

Key words: *Stepmother, child, woman, school, gratitude.*

KIRISH QISM:

Ahmad Lutfi Qozonchining "O'gay ona,, asari qo'limga tushib qoldi. Hali mutolaa jarayoniga sho'ng'imasimdan avval ko'zim kitob ostiga yozilgan quyidagi jumlagi yugurdi. "Onalar uchun o'z farzandini urushi - gunoh, o'gay farzandini urushi - johillikdir,, Chindan bu so'zlar ona deb atalgan zotning etini junjiktirib yuboradi. Axir qaysi ona o'z jigarbandini urushga qo'li boradi? Biroq, bu ish o'gay onaning qo'lidan kelishi mumkin deymiz. Balki shundaydir. Kitob "O'gay ona,, nomi bilan atalgan bo'lsa-da, men va siz xayollaringizda gavalangan bag'ritosh o'gay ona haqida emas, aksincha, begona bo'lishiga qaramay chin onalik maqomiga yetgan ayol to'g'risida. Asosiy qism: Asarga kirish qismi go'zal bahor tasviri bilan boshlanar ekan, erka quyosh qo'ynida qiy-chuvlashib bolalarning to'p o'ynashlari tabiiy hol. Ammo bu baxtdan mosuvo bo'lgan Ismoilning holati bu ajablanarli. Onasi bir necha yil burun vafot etib, o'gay ona qo'lida tarbiyalanayotgan, ochig'i azoblanayotgan go'dak har kun kaltakning tamini totadi. Bu qiynoqlar yetmagandey, hatto, o'z otang ham senga mehr to'la quchog'ini ochmasa yaralangan yuraginga tuz sepkanday gap. Biroq mutolaa davomida kutulmagan mo'jizaga duch kelishingiz sal bo'lsada kayfiyatingizni ko'taradi. Inson hayotda yaqinlaridan ko'rmagan yaxshilikni ba'zan mutloq begona bo'lgan kishidan ko'radi. Ha, Ismoilga ilk mehr qo'lini qo'shnisi bo'lgan o'n to'qqiz yoshli Fotima tutdi. Ismoilga o'z opasi singari g'amxo'rlik qildi. Kun kelib Fotimaning uyiga ayoli vafot etgan erkakdan sovchilar kelganda, onasi va qarindoshlari qarshi bo'lishlariga qaramay, Fotimaxonim ikki go'dak kelajagini o'ylab,

nigohga rozilik berishi bu haqiqiy oliyanoblik. Bo'lajak kuyov Odilbek Fotimaxonni boshqa o'gay onalar singari farzandlarining yosh umrini xazon qilguvchi ayol timsolida biladi. Lelin halolini qizi va o'g'liga dastlabki kundanoq ko'rsatgan marhamatini ko'rib, Yaratganga shukronalar keltirdi. Asarda Fotimaxonning go'zal hislatlaridan yana biriga guvohi bo'lishimisiz mumkinki, bu turmush o'rtog'ining avvalgi marhuma ayoli Xayriyaxonimga bo'lgan cheksiz hurmatida ko'rinadi. U uchun har tong qur'on tilovat qiladi. Hatto, Odilbek bilan suhbat jarayonida marhuma ayolini unutmazligi haqida so'z berishini so'raydi. Balki boshqa ayol bo'lganda rashkdan bu so'zlarni xayoliga ham keltirmagan bo'larmidi. Fotimaxonim esa aksincha qildi. Xayriyaxonim ruhi unutilmasligi uchun qo'ldan kelgan barcha amallarni bajardi. Besh qo'l barovar emas deganlaridek, Fotimaxonimning farzandlariga bo'lgan asl muhabbatini ko'ra olmaydigan, bunga inonmaydigan qo'ni-qo'shnilar ham topiladi. Xusaynga sening onang o'gay, deya yoshgina bolaning ong'ini zaxarlashga urungan ayollarning vijdoni qayerga yo'qoldi ekan deysiz. Ammo Fotimaxon bu gap-so'zlarga ham chidab, Allohdan o'ziga sabr, kuch-quvvat tiladi. Yillar o'tib Fotimaxonim qiz farzdanlik bo'lsa ham Xusayn va Odilaga bo'lgan muhabbati sira kamaymadi. Endi unda paydo bo'lgan yana bir mas'uliyat o'z va o'gay bolalariga bo'lgan mehrni teng berishga qaratilgandi. Xusayn maktabda o'qib yurgan kezlarida ma'lum bo'lishicha, uning Yilmaz ismli do'sti ham yetim ekan. Fotimaxonim Yilmazga ham onalik qila oldi. Har qanday qiyinchilik paytlarida yelkadosh bo'ldi. Xusayn maktabni tamomlagach Fotimaxonim uning keyingi ilm olishi yo'lida ham turshum o'rtog'i kabi tirgak bo'ldi. O'g'lining Imo Xatib maktabida ta'lim olishni davom ettirishida jonfidolik ko'rsatadi. Dastavval Odilbek Xusayn uchun dunyoviy ilm o'rgatadigan ta'lim dargohini tanlasa-da, keyinchalik Fotimaxon tanlagan ilm maskani to'g'ri tanlov ekaniga amin bo'ladi. Asarda Fotima nafaqat sadoqatli jufti halol, mehribon ona, balki, yaxshi do'st darajasiga ham yetadi. U jigarporasini noqobil bolalarga qo'shib ketmasligini oldini oldini oldi. Xusayn onasi tufayli ilmni puxta o'rganar ekan, uning mohiyatini ham anglay boshladi. Bir kun do'stlari bilan kinoga tushganida ko'rayotgan narsasidan ma'no qidira boshladi. Lekin filmning biror yeridan o'zi izlayotgan mazmunni topa olmadi. Xusayn shundan so'ng vaqtini bekorchi narsalarga sarflamasligini, har bir ketgan vaqti uchun Alloh oldida javob berishligini his qildi. Borgan sari ilmga muhabbat qo'yib borayotgan Xusayn ancha ulg'ayib ham qoldi. Endi Fotimaxon uning asl onasi emasligini yotig'i bilan o'g'liga tushuntirdi. Qizig', o'z onam deb o'ylagan zot, yillar o'tib o'gay bo'lib chiqsa, siz qanday ahvolga tushardingiz? Romanda Xusayning bu holatini his qilish murakkab, ammo uning holatini shunchaki, ko'z yugurtirib o'qib ketsa bo'lmaydi. Xusayn Yaratganga qancha shukronalar aytsa ham oz. Birga ulg'aygan do'sti Yilmaz onaning bir dona shirin so'ziga muhtoj. Uning qalbi gavhardanda qimmatli onasi og'ayligi sezdirmay, o'z bolasi deb qabul qildi. Umrini bag'ishladi. Asarni o'qish jarayonida ushbu satrlar yuragimni yomg'ir tomchilaridek silab o'tdi. "Farzandini bag'riga bosgan ayol onaligini isbot etsa, yetimni bag'riga bosgan ona

insonligini isbot etgan bo'lgan., Fotimaxon shu ikki xususiyatni o'zida isbot etdi. O'g'lini komil inson darajasiga yetishida, ikki gulyuzli qizlarini baxtli bo'lishida sababchi bo'lgan onaning dili xotirjamlikda, tili shukronada. Axir asl baxt shu emasmi? Xulosa: Asarni sinchiklab o'qiydigan bo'lsak, undan o'rgangan eng katta tushuncha dunyoda yaxshi o'g'ay onalarning ham mavjudligi. Hatto, ularni o'gay deyishga til bormaydi. Ammo yozuvchi bir biriga qarama-qarshi tarzda ikki o'gay onaning holati, ularning muomalasi-yu xulq-atvorlarini Fotimaxonimning go'zal hislatlari bilan taqqoslaydi. Asarning o'quvchi qalbiga yumshoq, tushunarli singishida payg'ambarimiz (s. a. v) ning so'zlari ustun vazifasini bajargan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTL RO'YXATI:

- 1.Ahmad Lutfi Qozonchining "O'gay ona,, kitobi.
- 2.<http://arm.sies.ur>
- 3.[https:// cyberleninka. ru](https://cyberleninka.ru)